

Bakteriyalarni zararsizlantiruvchi bo'yoq yaratildi

// 29.04.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bakteriyalarni-zararsizlantiruvchi-bo-yoq-yaratildi>



Nottingem universiteti olimlari aviatsiya, temir yo'l va sanoat tarmoqlari uchun yuqori samarali qoplamalar ishlab chiqaruvchi Indestructible Paint kompaniyasi bilan hamkorlikda bakteriya va viruslarni o'ldiradigan bo'yoq yaratishdi.

Mahsulot hozirda zarur tadqiqotlardan o'tkazilmoqda, ammo kelajakda u odamlar gavjum joylarda yuzalarni bo'yash uchun ishlatilishi mumkin.

Bo'yoq polimer smolasi asosida ishlab chiqariladi, unga tibbiyotda dezinfeksiyalovchi sifatida ma'lum bo'lgan xlorgeksidin qo'shiladi. Qurish jarayonida u faollashadi va ichak bakteriyasi, oltin stafilokokk, koronavirus va boshqalar xavfli patogenlarni o'ldiradi.

Ishlab chiquvchilarning ta'kidlashicha, bunday bo'yoq kasalxonada yuqadigan infeksiyalar va antibiotiklarga chidamlilikning tarqalishiga qarshi kurashda amaliy va arzon yechim bo'lishi mumkin.

Bo'yoq bilan plastik va metall kabi turli xil qattiq, g'ovak bo'lmagan materiallarda qo'llanilib o'tkazilgan dastlabki tajribalar mahsulot bakteriyalar va zamburug'larni samarali o'ldirishini va tirnalganida o'z xususiyatlarini saqlab qolishini ko'rsatdi.

Ishlanma an'anaviy dezinfeksiya usullariga ajoyib qo'shimcha bo'lishi mumkin.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati